

## **AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING O'ZGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Salayeva Navbahar*

*Urganch Davlat Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini  
katta o'qituvchisi ps.f.n tel:90-708-63-63.Psixolog\_15@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada amaliyotchi psixolog kadrlarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Amaliyotchi psixologning kasbiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy usul, vosita va shakllar keltirib o'tilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены особенности психологической службы, а также инновационные методы терапии. Приведены примеры некоторых способов решений положительной результативности инновационной деятельности психолога.

**Annotation.** This article discusses the features of pedagogical activity, as well as innovative methods, tools and types. Examples of some methods for solving the positive effectiveness of teaching innovation are given.

**Kalit so`zlar:** innovatsiya, novatsiya, muloqot, munosabat, individual yondashuv, jamoa, innovatsion ta'lim, innovatsion faoliyat, xususiyatlar.

**Ключевые слова:** инноватсія, новатсія, общение, взаимоотношение, индивидуальный подход, инновационная деятельность, особенности.

**Key words:** innovation, novation, communication, mutual realitions, individual approach, innovative, activity, features.

### **Kirish**

Amaliyotchi psixolog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashning o'zga xos xususiyatlaridan biri bu, jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlar natijasi va samarasini ta'minlovchi shaxs psixologiyasini zamonga ,davrga mosligini ta'minlashdek vazifani amalga oshirilishi bilan bog'liqidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6 108-son, "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" 2022-yil 10 -maydagi PF-134-son Farmonlar va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son, "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlaritirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarorlari, hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini

tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda Xalq ta’lim vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son buyrug‘ ijrosini ta’minalash maqsadida, belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz mehnat bozori, shaxs, davlat va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olib, amaliyotchi psixolog xodimlariga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, malaka oshirish va qayta tayyorlashning samarali usullarini joriy etiimoqda.

Amaliyotchi psixolog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minalashning o‘zga xos xususiyatlari asosiy maqsadi qyuidagilardan iboratdir:

- pedagogik-psixologik fanlarni o‘qitish metodikasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish;

- kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan kasb psixologiyasiga oid bilimlarga ega bo‘lishi;

- psixologik xizmatni tashkil qilish borasidagi kerakli uquvlarni shakllantirish va ko‘nikmalami hosil qilish;

- o‘z kasbi yuzasidan shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, munosabatlar psixologiyasi, jamoaning psixologik muhiti va uni ijobjiy boshqarish, fanining nazariy- metodologik va tabiiy-ilmiy asoslarini o‘rganish;

- kasbiy psixodiagnostik jarayon asoslarini, shaxsning xususiyatlarini, psixik holatini, muomala va tasavvurning qonuniyatlarini o‘zlashtirish;

- kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy kamolotga doir psixologik konsepsiyalami o‘rganish;

- psixologik xizmatning alohida sohasi sifatida psixologlar faoliyatida psixologik treningni tashkil etish hamda uni o‘tkazish bo‘yicha ilmiy-amaliy metodlarri o‘zlashtirish kabi vazifalardan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda amaliyotchi psixolog kadrlarning kasbiy rivojlanishida ularga qo‘yiladigan malaka talablari mavjud bo‘lib, umumiy va xususiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun tizimli, maqsadli, rejali, istiqbolli hamda keng qamrovli ishlarni amalga oshirishlari kerak. Amaliyotchi psixologlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalarida jamiyat rivoji hamda ta’lim-tarbiya masalalariga oid konseptual g‘oyalardan kelib chiqadigan ustuvor vazifalami;

- 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy -ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlaming mazmunini;

- O‘zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimi isloh qilinishi bo‘yicha mazmun va mohiyatini to‘g‘ri idrok etishni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror va ma’ruzalarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta’limi sohasi xodimlari oldida turgan dolzarb muammolar, ulaming yechimi, pedagogik mahoratni oshirish masalalarini masalalarini amaliyotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Jamiyatdagi sodir bo ‘layotgan o ‘zgarishlar yangiliklar dinamikasi psixologlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etishga olib keldi.Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o‘z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingen natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Ma`lumki, innovatsion faoliyatning mazmuni yangiliklar asosida ishslash bo`lib, psixologlarning yangilikni o`zlashtirishga tayyorgarligi mezonlari, ya`ni uzlusiz kasbiy rivojlanishga amaliyotchi psixologining motivatsiyasi, malakaviy tayyorgarligi, tajriba-sinovlar psixologik tadqiqotlarni amalga oshirish borasidagi bilim va ko`nikmalari, innovatsiyaga qarshi to`sqliarni bartaraf etish malakasini shakllanganligi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixolog kadrlarni uzlusiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashning o’zga xos xususiyatlaridan biri bu, amaliyotchi psixologning yangicha ishslashga, mustaqil va ijodiy fikrleshishga o’rgatish, ta’limning yangi mazmunini o`zlashtirishga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyorlash, pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini o`zlashtirib olishlariga yordam berish uchun ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarning uzlusiz malaka oshirishini tashkil qilish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni bartaraf qilish maqsadida bir qancha yangiliklar kiritildi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g`risida” gi PF-4947-sen Farmoni, 2018- yil 5- sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g`risida” gi PQ-3931-sen Qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6- apreldagi “Umumiyl o`rtal va o`rtal maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g`risida”gi 187-sen Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g`risida”gi PF-5712-con farmonida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar asosida maktab amaliyotchi psixologining malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Amaliyotchi psixolog kadrlarni uzlusiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashning o'zga xos xususiyatlaridan yana biri bu, oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan tayanch fakultetlardagi ta'lim yonalishlari bo'yicha dars berayotgan universitet professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikning tashkil qilinishi va ular bilan shartnomalar imzolanishi, ilmiy salohiyatni yanada takomillashtirish kabi dolzab masalalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Ta'limdagи innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topmagan. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa nazariy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilish edi. Endilikda oliy ta'lim va malaka oshirish markazlari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlik maktab psixologning malakasini oshirishiga bo'lgan munosabatini ham o'zgartiradi. Chunki malaka oshirishga kelgan psixolog o'zi tahsil olgan fakultetida amaliyot o'tasa va o'z ustozlaridan fan yangiliklarini qaytadan yangicha talqinini eshitsa bu maqsadga muofiq uzziy bog'lanishni yuzaga keltiradi.

Ta'lim tizimiga ilg'or texnologiya va innovatsiyalar ayniqsa rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi ijobiy va samarali usullari bizning mamlakatimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Lekin psixologlar bu innovatsiyalarni aksariyat hollarda o'z faoliyatida qo'llay olmayapti. Chunki psixologlar asosiy qismi ta'limdagи innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish jarayoniga to'liq tayyor emaslar. Shu sababli psixologlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularga ko'rsatiladigan metodik xizmatni yangicha tashkil qilish hozirda ta'lim tizimining amaliy extiyojini ta'minlovchi asosiy vositaga aylanmoqda. O'qituvchilar malakasini oshirish jarayonida ularning pedagogik faoliyatini yangilash, innovatsion faoliyatga yo'naltirish, ta'lim jarayoniga yangiliklar va innovatsiyalarni olib kirishga tayyorlash zarurati paydo bo'lmoqda.

Amaliyotchi psixolog kadrlarni uzlusiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga yangicha yondashuvning mazmun-mohiyatini aniq rejalashtirib olish va uni amaliyotga tatbiq qilish masalasi bo'yicha barcha amaliyotchi psixologlar uchun onlayn hamda oflayn tarzida seminar-treninglar tashkil qilindi. Seminar-treningning asosiy maqsadi kattalarning ta'limi va uzlusiz kasbiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari, onlayn tarzda malaka oshirish va uning o'zoga xos bo'lgan ba'zi jihatlari, psixologning shaxsiy kabineti, sertifikatni qo'llga kiritishda bajariladigan amallarning mohiyati va mazmuni ochib berildi. Xozirgi kunda psixologning uzlusiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga ijodiy yondashuv bilan bir qatorda unga yetkaziladigan fan yangiliklari, metodikalar, metodlar va vositalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari ham qaytadan ko'rib chiqilmoqda.

Endilikda viloyatlarda faoliyat yuritayotgan milliy markazlarda psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda innovatsion faoliyat yuritish mexanizmlarini va unga amal qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.Ushbu uslubiy tavsiyalarda innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, psixologning innovatsion faoliyatini belgilovchi mezonlar, psixologni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi texnologiyasi, psixologning malaka oshirishdan keyingi faoliyatini monitoring qilish mezonlarini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Amaliyotchi psixolog kadrlarni uzlucksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashning o'zga xos xususiyatlaridan yana biri bu, shaxsni tashxislash bo'yicha ishlab chiqilgan yangi etodikalar,usullar,vositalar,testlar,ishlanmalar,tarqatmalar,darsliklar,o 'quv qo'llanmalar,internetning psixolog faoliyatini kreativligini ta'minlashga yo'naltirgan didaktik vositalar,nostandart testlar va ijodiy topshiriqlarning bazalarini shaklantirishlari uchun ham katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, amaliyotchi psixolog kadrlarni uzlucksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash jarayoni keng qamrovli bo'lib,ushbu jarayonda alohida e'tibor amaliyotchi psixolog shaxsiga borib taqaladi.Chunki,uning o'z faoliyatini samarali kechishini ta'minlovchi omillar juda ko 'p bo'lib ularning eng asosiysi ham uzlucksiz kasbiy rivojlanishdir.Agarda u bu jarayonga tizimli,maqsadli,rejali va vijdonan yondashsa u faoliyat yuritayotgan jamoada ijobiliylik,muvaffaqiyat,tinchlik va xotirjamlikka erishiladi.Bu esa,o 'z vaqtida psixologning mavq'esi va obro'sini oshishiga olib keladi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / - T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
2. Po'latov Sh. Ta'lim menejmenti, yohud ta'lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. Toshkent 2018 y., 52 6 bet.
3. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: "Fan", 2009
4. Qo'chqorov A. va boshqalar. Menejer imkoniyatlari. Toshkent, 2001.